

**ARBA'IN – AHLOHIQIY TARBIYA MAJMUASI (MUQADDAS QUR'ONI KARIM OYATLARI  
BILAN TAHLIL QILINGAN)**

**Mamasharipova Mohiya Meliboy qizi**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi muhandisi, magistr.*

[mohiyajumaboyeva51@gmail.com](mailto:mohiyajumaboyeva51@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Muqaddas Qur'oni Karimdagi ba'zi oyatlar Alisher Navoiyning "Arba'in" asari bilan birgalikda tahlil qilinadi. Odob-ahloq, saxiylik, kamtarlik haqida keltirilgan oyatlar, hadislarning Navoiy talqinida qanday yozilganligiga alohida to'xtalib o'tiladi.*

**Kalit so'zlar:** *odob-ahloq, hurmat, tarbiya, hadis, qiyosiy tahlil.*

**ARBA'IN - A COMPLEX OF MORAL EDUCATION (ANALYZED WITH THE VERSES OF THE  
HOLY QURAN)**

**Mamasharipova Mokhiya Meliboy qizi**

*Engineer, Master of Science, Department of Scientific Research, Innovations and Scientific and Pedagogical Personnel Training, Almalyk Branch of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov.*

[mohiyajumaboyeva51@gmail.com](mailto:mohiyajumaboyeva51@gmail.com)

**Annotation:** *This article analyzes some verses of the Holy Quran together with Alisher Navoi's work "Arba'in". Special attention is paid to how the verses and hadiths about etiquette, generosity, humility are written in Navoi's interpretation.*

**Keywords:** *etiquette, respect, education, hadith, comparative analysis.*

Musulmon olamining muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni Karim – musulmonlarning eng buyuk manbai bo'lib, nafaqat aqida va ibodat masalalarida, balki odob-axloq masalalarida ham mukammal dasturdir. Uning oyatlari inson ruhiyatiga, ijtimoiy hayotiga va ma'naviy poklanishiga bevosita ta'sir qiladi. Qur'on odamni sabr, shukr, halollik, iffat va kamtarlikka o'rgatadi. Qur'on ota-onaga hurmatni eng oliy burch sifatida ko'rsatadi. Qur'on odamlar orasida tinchlik, mehr-oqibat va halollikni targ'ib qiladi. Qur'on doimo insonni qiyomat kuni haqida ogohlantiradi. Va eng muhimi Qur'on boylikning haqiqiy egasi Alloh ekanini eslatadi. Umumiy qilib aytganda, Qur'oni Karim oyatlari insonning ichki dunyosini poklaydi, oilada

hurmat va mehrni mustahkamlaydi, jamiyatda adolat va tinchlikni ta'minlaydi, insonni oxirat uchun javobgarlikka tayyorlaydi. Ya'ni, Qur'on oyatlari musulmonlarning hayot tarzini belgilab, ularning odob-axloqini shakllantiruvchi mukammal ma'naviy qo'llanmadir.

Alisher Navoiyning "Arba'in" (arabchada "qirq" hadis) asari didaktik-diniy she'riy to'plam hisoblanadi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarining qirqtasini o'zbek tilida she'riy bayon qilgan hazrat Navoiy har bir hadisni xalq ongiga yaqinlashtirish uchun to'rt baytdan iborat ruboiy shaklida ifoda etgan. Bu uslub musulmon xalqlari orasida keng tarqalgan "Arba'in hadis" an'anasi bilan bog'liq. Ko'plab olimlar hadislarining qirqini yig'ib, tarjima va sharh qilganlar. Navoiy esa bu an'anani ijodiy davom ettirgan. Asarning odob-axloqiy ahamiyati nihoyatda qimmatli. Sababi, didaktik jihatdan har taraflama insonlarga saboq beruvchi hadislar jamlangan. Asarda insonni halollik, saxovat, sabr, shukr, ota-onaga ehtirom, mehr-oqibat, kamtarlik va bag'rikenglikka chorlovchi hadislar she'riy tilda beriladi. Qur'on va hadisdagi murakkab diniy hikmatlarni xalq oson tushunadigan, badiiy va ravon shaklda ifoda etadi. Bu orqali Navoiy diniy ta'limotni odatiy hayotiy maslahat darajasiga olib chiqadi. "Arba'in"da qo'shniga yaxshilik qilish, birodarga yordam berish, yolg'on va g'iybatdan tiyilish haqida ko'p fikrlar bor. Bu g'oyalar jamiyatda do'stlik, adolat va tinchlikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Har bir hadisning she'riy bayoni insonga nafaqat dunyoviy, balki oxirat haqidagi mas'uliyatini ham eslatadi. Bu esa odamni o'z nafsini tiyishga, gunohdan qochishga undaydi. Alisher Navoiy "Arba'in" asari orqali Qur'on va hadisdagi axloqiy qoidalarni xalq tilida sodda va ta'sirchan ifodalagan, insonni odobli, saxovatli, halol, kamtar va mehribon bo'lishga da'vat qilgan, asarni xalq uchun ma'naviy-tarbiyaviy qo'llanma darajasiga ko'targan. Shuning uchun "Arba'in" bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan — u diniy-ma'naviy va axloqiy tarbiya manbai sifatida qadrlanadi.

Muqaddas "Mushafi sharif"da saxiylik va isrof qilmaslik haqida shunday oyat bor: *"Qo'lingni bo'yningga bog'lab olma va uni butkul yoyib yuborma. So'ngra malomatga qolib, qo'ling bog'langan (faqir) bo'lib qolasan( Isro surasi, 29-oyat)".* Oyatning asosiy g'oyasi: odam saxiy bo'lsin, ammo isrofchi ham bo'lmasin. Qo'li bo'g'langan (xasis) odam — jamiyatda yomon ko'riladi, oxiratda ham zarar ko'radi. Butunlay yoyib yuborish (isrof) esa insonni qashshoqlikka olib keladi. Demak, oyat insonni o'rtacha yo'lga, ya'ni saxiylik bilan tejamkorlik orasidagi me'yorni saqlashga da'vat qiladi. Saxiylik va isrof qilmaslik ruknida yozilgan bu oyatga hazrat Navoiy o'zining "Arba'in" asarida shunday yozadi:

*Mol bazl ila sud agar tilasang,*

*Oqibat chun o'lum erur mavjud.*

*Asrag'on qolur, ulki bazl etting*

*Sanga hamroh borurdin etting sud.*

Ya'ni "As-samohu rabahun"(Qo'li ochiqlik – foydadur) molni saxovat ila sarf qilsang, haqiqiy foyda (savob) topasan. Axir, oxir-oqibat mol dunyo bilan qoladi, lekin berganing, ehson qilganing – sen bilan birga oxiratga boradi. "Molni bazl qil" — ya'ni saxovat ila sarf qil, ehson et. Chunki dunyo molining "oqibati — o'lim", ya'ni inson molni yig'ib ham, oxirida o'zi

bilan olib keta olmaydi. Faqat ehson qilingan mol oxiratda senga hamroh bo'ladi va foyda (savob) keltiradi. "Asrag'on qolur" — ya'ni qanchalik yig'sang ham, mol dunyoda qoladi, faqat berilgan ehson sen bilan ketadi.

Ma'nodagi uyg'unlikka keladigan bo'lsak: Qur'oni Karimda - isrof qilma, baxillik ham qilma deyilsa, Navoiy baytlarida berilgan mol – haqiqiy foyda, yig'ilgan mol – foniydur deyilmoqda. Bu orqali Navoiy Qur'oni Karimdagi saxiylik haqidagi oyatlarni she'riy tilda sharhlab, xalq ongiga yanada yaqinlashtirgan.

*"Odamlarga yaxshi so'z aytinglar (Baqara surasi, 83-oyat)".* Ya'ni tilni yomonlikdan saqlash, yaxshi so'zlash insoniylik belgisidir. Til — insonning eng katta sinovidir. Yaxshi so'z qalblarni yumshatadi, yomon so'z esa nafrat uyg'otadi. Shuning uchun Qur'on tilni faqat yaxshi gap uchun ishlatishga undaydi.

*Kim musulmonlig' aylasa da'vo*

*Chin emas gar fido qilur jonlar.*

*Ul musulmondururki, solimdur.*

*Tiliyu ilgidin musulmonlar.*

Ya'ni "Al-muslimu man salim al-muslimuna min yadihi va lisonihi (Qo'lidan va tilidan musulmonlarga ozor yetmaydigan kishigina haqiqiy musulmondur.)". Imom Buxoriy rivoyati asosida yozilgan bu bayt ma'nosi shuki: Musulmonlik faqat tashqi ko'rinishda emas, balki boshqalarga ozor bermaslikda namoyon bo'ladi. Ya'ni inson o'zini musulmon deb atasa-yu, tilidan, qo'lidan boshqalarga zarar yetsa, bu da'vo soxta bo'ladi. Navoiy bu hadis mazmunini she'riy tilda ifoda etgan. "Musulmonlikni da'vo qilish" faqat nom yoki so'z bilan musulmon bo'lib ko'rinish. Ammo "haqiqiy musulmon" bu tilidan ham, qo'lidan ham birodarlari omon bo'lgan, hech kimga ozor yetkazmaydigan inson. Demak, musulmonlikning mezoni – odob, til pokligi, qo'l pokligi.

Qur'on Karimdagi mazkur oyat yaxshi so'zlashni buyuradi. Hadis esa til va qo'l bilan zarar yetkazmaslikni shart qiladi. Navoiy: bu fikrlarni badiiy shaklda ifodalab, "haqiqiy musulmon – birodarlari undan omon bo'lgan kishi" deya xalq qalbiga yaqinlashtiradi. Bu uch manba Qur'on, hadis va Navoiy ijodi – bir nuqtada birlashadi. Ya'ni insoniylik va musulmonlikning mezoni til va qo'l bilan yaxshilik qilishdir. Yaxshi so'zlash, odobli muomala qilish va ozor bermaslik eng oliy axloqiy qadriyat sifatida talqin etiladi.

Sharq oilalarida ota-onalarga muhabbat, hurmat, e'tibor va e'zoz hamma davrlarda dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Avvalboshi Qur'oni Karimda Ota-onaga hurmat va ehtirom Isro surasining 23–24-oyatlarida tilga olingan. *"Ota-onaga ezgulik qilinglar. Ularning biri yoki ikkalasi keksayib qolsa, 'uf' ham demanglar, ularga malomat qilmanglar, balki ularga muloyim so'z aytinglar"*. Shuningdek, Luqmon surasining, 14-oyatida *"Biz insonga ota-onasini (e'zozlashni) vasiyat qildik. Onasi uni zaiflik ustiga zaiflik ila ko'tardi va ikki yil emizdi. Menga va ota-onangga shukr qilgin. Oxir-oqibat faqat Mening huzurimga qaytarilursiz (Ma'nosi ona haqqi alohida ta'kidlangan – homiladorlik, tug'ish va emizish mehnatlari e'tirof qilinadi)"* –

deyilgan bo'lsa Ankabut surasining, 8-oyatida “Biz insonga ota-onasiga yaxshilik qilishni vasiyat qildik. Agar ular senga Meni bilmagan narsaga (shirkka) sherik qilishga majbur qilsalar, ularga itoat etma. Sizlarning qaytishingiz Mening huzurimdadir. Men sizlarga qilgan amallaringizni xabar qilaman (Ma’nosi ota-onaga hurmat shart, ammo ular shirk yoki gunohga undasa, itoat qilinmaydi. Lekin hurmat baribir saqlanadi)”- deyiladi. An-Niso surasining 36-oyatida “Allohga ibodat qilinglar va Unga hech narsani sherik qilmanglar. Ota-onaga (ezgulik qilinglar...)(Ma’nosi ota-onaga ezgulik qilish Allohga shirk qo’ymaslikdan keyin darhol zikr qilinadi. Bu ota-ona huquqining naqadar yuksakligini ko’rsatadi)”. Ahqof surasining 15-oyatida “Biz insonga ota-onasiga yaxshilik qilishni vasiyat qildik. Onasi uni azob bilan ko’tardi va azob bilan tug’di. Uni ko’tarish va sutdan ajratish muddati o’ttiz oy bo’lur... (Ma’nosi onaning mashaqqati yana bir bor alohida ta’kidlanadi. Bola ulg’aygach, ota-onaga shukr qilish buyuriladi)”. Baqara surasining 83-oyati va Maryam surasining 32-oyati (Iso alayhissalomning so’zlari) ota-onaga ehtirom haqidadir.

Ota-onaga hurmat – musulmonning eng oliy burchi. Inchunun Alisher Navoiyning “Arba’in” asarida Qur’oni Karim oyatlari va hadislariga hamohang tarzda ota-ona haqidagi qator baytlar ham aynan shu ruhda yozilgan. Navoiy hadis mazmunidan kelib chiqib, ota-onaga yaxshilik qilish, ularga ozor bermaslik, duo qilish, xizmatda bo’lishni asosiy insoniy burch sifatida ta’kidlaydi. Ota-onani hurmat qilmagan farzandni odobsiz va bebaxt deb baholaydi.

*Onalarning oyog’i ostidadur*

*Ravzai jannatu jinon bog’i.*

*Ravza bog’i visolin istar esang,*

*Bo’l onaning oyog’i tufrog’i.*

Ya’ni Al-jannatu tahta aqdomi ummahati (Jannat onalaringiz oyog’i ostidadur). “Arba’in”da ota-onaga xizmat qilish — Alloh rizosiga erishish yo’li ekanini ko’rsatadi. Farzand uchun ota-onaga mehribonlik — eng ulug’ ibodatdir. Ota-onaning duosini olgan kishi dunyo va oxiratda saodat topadi. Ota-onaga bepisand qarash yoki ozor yetkazish esa, Allohning g’azabini jalb qiladi. Navoiy ota-ona xizmatini shunday talqin etadi: Kim ota-onasiga xizmat qilsa, bu amal uning oxirat azobidan najotiga sabab bo’lur. Kim ota-onasiga ozor etsa, uning umri barakasiz bo’lur. Qur’onda “Ota-onaga ‘uf’ ham demanglar” (Isro, 23-oyat) deyilsa, Navoiy ham farzandning eng kichik hurmatsizligini katta gunoh deb ko’rsatadi. Hadisda “Jannat onaning oyog’i ostidadir” deyilsa, Navoiy ham bu mazmunni badiiy shaklda ifodalab, farzandni ota-onaga xizmatga undaydi. “Arba’in”dagi ota-ona haqidagi baytlar yoshlarni sabrli, muloyim, shukrli bo’lishga o’rgatadi. Jamiyatda oilaviy rishtalarni mustahkamlaydi, mehr-muhabbat muhitini kuchaytiradi. Ota-onaga hurmat — insonning kamoloti va haqiqiy musulmonligi belgisi ekanini ko’rsatadi.

Fikrlarimizni umumiy xulosasi ushbu jadvalda batafsil yoritilgan:

Mavzu	Qur’oni Karim	Navoiy	O’xshash
-------	---------------	--------	----------

	<b>oyati</b>	<b>“Arba’in”dagi bayt mazmuni</b>	<b>jihati</b>
Ota-onaga hurmat	“Ota-onaga ezgulik qilinglar, ularga ‘uf’ ham demanglar, muloyim so‘z aytinglar.” (Isro, 23–24)	Ota-onaga xizmat qilgan saodat topadi, ozor bergan barakadan mahrum bo‘ladi.	Ikki manba ham ota-onaga hurmatni eng oliy axloqiy burch sifatida ko‘rsatadi.
Yaxshi so‘zlash	“Odamlarga yaxshi so‘z aytinglar.” (Baqara, 83)	“Musulmonning tili va qo‘lidan boshqalarga ozor yetmas.”	Til pokligi musulmonlikning asosiy belgisi sifatida talqin etiladi.
Saxiylik va isrof qilmaslik	“Yeb-ichinglar, lekin isrof qilmanglar.” (A‘rof, 31)	“Molni baxsh etsang foyda topasan, asraganing qoladi, saxiylik foydadir.”	Qur‘on saxiylikni buyuradi, Navoiy ham qo‘l ochiqlikni insoniy fazilat deb ulug‘laydi.
Kamtarinlik	“Yerda kibr bilan yurma.” (Isro, 37)	“Kamtar bo‘lgan odam yuksaklik topadi.”	Ikki manba ham kibrni qoralaydi, kamtarlikni ulug‘laydi.
Yaxshilik qilish	“Allohga shirk qo‘ymang, ota-onaga yaxshilik qiling, qarindosh, yetim va miskinlarga ham ezgulik qiling.” (Niso, 36)	“Kishi faqat o‘zini emas, boshqalarni ham o‘ylab yaxshilik qilishi kerak.”	Har ikki manba yaxshilikni faqat o‘ziga emas, boshqalarga ham qilishni targ‘ib qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim (*ma'nolarining tarjimasi*). – Toshkent: Toshkent islom Universiteti, 2004.
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jomi' As-Sahih. 1-jild (*arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi*). – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991.
3. Afoqova N. Muhammad (s.a.v) dedilar...“Arba'in” turkumi. <http://www.kh-davron.uz>- 2015.
4. Навоий А. Арбаъин, Суйима Ғаниева нашрга тайёрловчи. – Тошкент: «Фан», 2000. Б.
5. Navoiy A. Arba'in, Mansur Asqarov tarjimasi. - <http://www.kh-davron.uz> 2017.